


I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, viloyatda 2021 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (YAHM) hajmi joriy narxlarda 8 877,2 mlrd. so'mni tashkil etdi. YAHMning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,9 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YaHM) – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.


Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 100,8 foiz, (YAHM tarkibidagi ulushi 46,3 foiz), sanoat – 114,7 foiz (13,1 foiz), qurilish – 105,8 foiz (7,1 foiz), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 103,4 foiz (6,4 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 113,1 foiz (4,1 foiz) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar 106,4 foiz (23,0 foiz)ni tashkil qildi.

2021 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarishda tarmoqlarning ulushi, foizda







YAHM deflyator indeksi 2021 yilning yanvar-iyun oylaridagi narxlarga nisbatan 115,6 foizni tashkil etdi.





(foizda)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 6 261,7 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 foizga o'sdi.





2021 yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHMning ishlab chiqarish usuli bilan hisoblangan tarkibi





| | Mlrd. so'm | | O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|--|----------------|----------------|---|
| | 2020 yil | 2021 yil | |
| I. YAHM | 7 320,1 | 8 877,2 | 104,9 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
|  Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 7 200,3 | 8 632,3 | 104,9 |
|  Mahsulotlarga sof soliqlar | 119,8 | 244,9 | 104,7 |
| Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati | 7 200,3 | 8 632,3 | 104,9 |
|  Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 3 256,2 | 3 992,8 | 100,8 |
| Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) | 1 487,4 | 1 741,7 | 111,1 |
|  sanoat | 874,4 | 1 127,4 | 114,7 |

| | | Mlrd. so‘m | | O‘shish sur‘atlari, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da |
|---|--|----------------|----------------|--|
| | | 2020 yil | 2021 yil | |
|  | qurilish | 613,0 | 614,3 | 105,8 |
| | Xizmatlar | 2 456,7 | 2 897,8 | 106,6 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 472,1 | 550,7 | 103,4 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 280,6 | 350,2 | 113,1 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 1 704,0 | 1 996,9 | 106,4 |

Iqtisodiy o‘shish sur‘ati milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan ijobiy o‘shish sur‘atlari bilan bog‘liqdir.

2021 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


| | | 2020 yil | 2021 yil |
|---|---|--------------|--------------|
| | I. YAHM, jami | 100,0 | 100,0 |
| | <i>shu jumladan:</i> | | |
|  | Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 98,4 | 97,2 |
|  | Mahsulotlarga sof soliqlar | 1,6 | 2,8 |
| | II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 100,0 | 100,0 |
|  | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 45,2 | 46,3 |
| | Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda) | 20,6 | 20,2 |
|  | sanoat | 12,1 | 13,1 |


| | | 2020 yil | 2021 yil |
|---|--|-------------|-------------|
|  | qurilish | 8,5 | 7,1 |
| | Xizmatlar | 34,2 | 33,5 |
|  | savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 6,6 | 6,4 |
|  | tashish va saqlash, axborot va aloqa | 3,9 | 4,1 |
|  | boshqa xizmat tarmoqlari | 23,7 | 23,0 |

2021 yilning yanvar-iyun oylari yakunlariga ko'ra, hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 46,3 % ni, sanoat tarmog'i 13,1 % ni, qurilish 7,1 % ni va xizmatlar sohasi 33,5 % ni tashkil qildi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)







2021 yilning yanvar-iyun oylarida YAHM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 33,5 foizni tashkil qildi, bu esa 2020 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 0,7 foiz punktga kamaygan (34,2 foiz). Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar ulushi 0,2 foiz punktga kamaydi, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlarida 0,2 foiz punktga ko‘paydi hamda xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar ulushi 0,7 foiz punktga kamaygan.

Xizmatlar sohasining yalpi qo‘shilgan qiymati tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2020 yil yanvar-iyun

2021 yil yanvar-iyun



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Xizmat ko‘rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jumladan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YAHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 2021 yil yanvar-iyun oylarida – 6,4 foizni (2020 yil yanvar – iyun oylarida – 6,6 foiz), tashish va saqlash, axborot va aloqa 4,1 foizni (3,9 foiz), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 23,0 foizni (23,7 foiz) tashkil etdi.